

MAHMUD KOSHG'ARIY



A portrait painting of a man with a dark beard and mustache, wearing a white turban and a patterned robe. He is looking slightly to the right. The painting is set within a gold-colored frame.

Mahmud ibn Husany ibn Muhammad (XI asr)

Reja:

1. Mahmud Koshg'ariyning hayot yo'li
2. Koshg'ariyning ijodiy merosi.
3. “Devoni lug’otit turk”-qomusiy asar.

Mahmud Koshg'ariy Bolasog'un shahrida dunyoga keladi. Uning to'liq ismi Mahmud ibn Husayn ibn Muhammaddir. Hozirgi Qirg'izistonda Barskon nomida daryo va dovon bor. Ular Issiqko'l atrofida joylashgan.





Маҳмуд Кошғарий «Девону луготит турк» асарини 469 (1076-77) йилда ёзиб тугаллаган. Муаллиф «Девону луготит турк» устида ўн беш йилдан мўл ишлаган деган таҳмин бор. «Девон»да Урта Осиё ерида яшаган туркий халқлар тили таркибиға кирган сўзларнинг арабча изоҳли таржимаси берилган. Шундай қилиб, бу китоб қадимий туркий тилининг изоҳли лугати десак бўлади.

Бу китобнинг ягона қўлёзмаси Истамбулда (Туркия) сақланади. Уни кўчирган котиб Муҳаммад бин Абу Бакир Димишқийининг хабар беришича, у Маҳмуд Кошғарийнинг ўз қўли билан ёзилган нусхасидан кўчириб ёзган.

«Туркий сўзлар девони»да шеърий нарчалар яхлит ҳолда келтирилмаган. Улар айрим сўзларнинг изоҳи учун фойдаланилган. Шунинг учун ҳам китобда тарқоқ ҳолда учрайди. Биз ушбу китобда уларни йигиб, маълум бир тартибда таҳдил этишини кўзда тутдик. Бу нарчалар ҳозиргача ўзбек тилида насрый таржима орқали бериб келинди. Биз эса уларни цазм билан таржима қилишга уриндик.

Бу шеърий нарчалар мазмун жиҳатидан хилма-хилдир. Уларда жанглар тасвири, қаҳрамонлар тасвифлари, севги туйғулари, табнат манзаралари турли-туман ҳолатларга оид ўғит-насиҳатлар, замон ва кишиларга муносабатларни билдирувчи шеърлар бор. Шеърлар бармоқ вазнида, ниҳоятда фикр ва сўзга зич шаклда ёзилгая. Вазни ва қофияларида изчил қонуният қаттиқ сақ-

**Mahmud Koshg‘ariy umri davomida
qilgan mashaqqatli mehnati evaziga
qomuschi olim va tolmas sayyoh
bo‘lib tanildi. U turkiy til
grammatikasini ishlab chiqqan,
turkcha-arabcha lug‘atning ilk
namunasini yaratgan birinchi
tilshunos olimdir.**

- «Devonu lug'ot at-turk» Mahmud Koshg'ariy qoldirgan va turkiy xalqlar uchun bebaho qumaru – merosdir. Bu asarda olim turkiy tildagi so'zlar ma'nosini arab tilida izohlab beradi. Misol sifatida esa xalq tilida mavjud namunalarga murojaat etadi. Muallifning:
 - *«Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so'zlar, saj' (qofiyali nasr)lar, maqollar, rajaz (misralari nisbatan uzunroq bo'lgan she'r turi) va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim... Bu ishda misol tariqasida turklarning tilida qo'llanib kelgan she'rleridan, shodlik va motam kunlarida qo'llanadigan hikmatli so'zlardan, maqollardan keltirdim »,* – deyishi bejiz emas.

«Devonu lug‘ot at-turk» asari 1072-yilda yozila boshlagan. Ammo unga kirgan materiallar 15–20 yillar davomida to‘plangan. Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi: «*Men turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar, qirg‘izlarning shaharlari, qishloq va yaylovlarini ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim*», – deb yozadi.


ДЕВОНУ ЛУФАТИТ ТУРҚ

(Шеңрий парчалар)

Келди менга төг,
Лайдим энді ёт.
Қүшқа бўлиб эт,
Сени тилар оч бўри.
(Т. 1. 72)¹

Кўрқлик тўнинг ўзинига,
Тотлир ошиниг ўзгара.
Кўноққа кўргиз иззат,
Ёйсин шаънииг узоққа.
(Т. 1. 80)

Кетди кўзимнииг нури,
У билан танам руҳи.



¹ Қисқартмаларда аввал изшр этилган жой, сўнг том ва бет кўрсатилган.

- «Devonu lug'ot at-turk» («Turkiy tillar lug'atlari») deb nom berilgan. U Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlangan. Mahmud Koshg'ariy turk tilining nozik bilimdoni va tolmas targ'ibotchisidir. U «arab tili bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib, o'zib borayotgan turk tilini» ko'klarga ko'taradi, uning o'ziga xos xususiyatlarini mahorat bilan ko'rsatib beradi.

- «Devonu lug'ot at-turk» XI asrda yozilgan bo'lsa-da, unda jamlangan badiiy parchalar turkiy xalqlar adabiyotining ancha qadimgi davrlarida vujudga kelgan. Ular xalq og'zaki ijodining juda qadimiy namunalaridir. Ularda turkey xalqlarning urf-odatlari, ishonch-e'tiqoddlari, marosimlari bilan bog'lanib ketadigan badiiy lavhalar ko'p. Ularning bir qismi bevosita tarixiy mavzularga bag'ishlangan.


- Shuningdek, ayrim adabiy hodisalar haqida maxsus izohlar bergan.
- Jumladan: *Yir* – kuy, maqom... Ko'pincha bu so'z she'rga nisbatan qo'llanadi. Bu so'z *ir* tarzida ham talaffuz qilinadi.
- *Qo'shug'* – she'r, qasida, qo'shiq. «Devon»ga kirgan adabiy shakllarning asosiy qismini *to'rtliklar* tashkil qiladi. Adabiyotda *to'rtlik* shakliga tayanadigan she'riy janrlar (*to'rtlik*, *ruboiy*, *tuyuq*, *murabba'*)ning rivojlangani ma'lum. Mahmud Koshg'ariy ularni, asosan, *qo'shug'* yoki *she'r* deb nomlagan.

Қайда экан (сөвсаным),
Кечалари йүқ уйқу.
(Т. 1. 81)

Үншіг ишиң битирдім,
Дүстини ҳам қочирдім,
Ұлум захрин ичирдім,
Ичди юзи тиртайиб.
(Т. 1. 82)

Олғил, үғил, мендан үгіт,
 фазилат ол.
Бұша улуғ олим бўлиб,
 илемнинг ёй.
(Т. 1. 85)

Улуғларынг ошса агар,
 хушхулқ бўлил.
Бек ёнида ҳалқлар учун
 хўб иш қилғил.




- **Alp Er To'nga haqidagi marsiya ham mavjud.**

Alp Er To'nga – turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Hojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashlarini yozgan. Mahmud Koshg‘ariy Afrosiyobni Qashqarda – O‘rdukent shahrida turar edi, deb ko‘rsatadi. To‘nga Alp Er – yo‘lbars kabi kuchli bahodir demakdir. «Devon»da uning Barman, Barsg‘an degan o‘g‘illari hamda Qaz ismli qizi haqida ham ma’lumotlar bor..

«Devon»da ana shu buyuk tarixiy shaxs – Alp Er To‘nga haqidagi bir necha to‘rtliklar saqlanib qolgan. Ular, asosan, Alpning vafotiga bag‘ishlangan. U tom ma’nodagi marsiya namunasidir. Marsiyada Afrosiyob – Alp Er To‘nganing o‘limi achchiq qismat, dahshatli fojia, o‘rnini to‘ldirib bo‘lmaydigan yo‘qotish sifatida baholanadi

Alp Er To‘nga – xalq sevgan qahramon. Shunga ko‘ra uning oradan ketishi beklarning oti charchashiga, ularning g‘am ostida qolishiga, yuzlarning sarg‘ayishiga sabab bo‘ladi. Xalqning bo‘ridek ulishi, ya’ni haddan tashqari iztirobi, hatto yoqalarini yirtib yig‘lashi, uning ustiga bu iztirobning davomi bo‘lishi (yig‘lab-siqtab yurdilar) xalqning Alp Er To‘ngaga bo‘lgan kuchli muhabbatini samimiylar, ishonarli va ta’sirchan chizib bera oladi. Amirlar otlarining horishi uzoq va mashaqqatli yo‘l oqibatidir. Demak, Afrosiyob motamiga kelganlar faqat yaqin-atrofdagilar emas, balki ancha olisdan ham kelishgan. Bunday ulug‘ insonning vafoti ularning ruhiyatiga kuchli ta’sir qilgan



Farzanlari

Qaz

Barman

Barsman

MAQOLLAR.

«Ardam bashi – til» [«San’at, fazilatlarning
boshi til(da) dir】

«Qut belgusi – bilik» («Bilim – baxt belgisi»)

«Ko‘k ko‘rди, keragu yazти» – «Mehnat va
mashaqqatni ko‘rди-yu, o‘tovini orqasiga yuklab
oldи»

MAQOLLAR.

«Uma kelsa, qut kelar» – «Mehmon kelsa,
qut kelar»

«Emgak ekinda qolmas» -Mehnat bekorga
ketmaydi.

«Qish qo’niqi –o’t» Qishning ziyoфati –
olovdir.

«Tulku o’z iniga ursa, ujuz bo’lur» Tulki
o’z uyasiga qarab ulisa, qo’tir bo’ladi

Marsiya janri haqida

- Biror kishining vafoti munosabati bilan g’alam , hasrat va qayg’uni ifodalangan she’r yoki qo’shiq marsiya deyiladi.
- Alp er To’nga haqidagi marsiya shu janrning bizgacha yetib kelgan eng qadimiy namunalaridan biridir.Unda shu xalqning shu qahramonga bo’lgan hurmati va ehtiromi ko’rsatilgan.

- **Tuzuvchi: ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi
Bozorova G.N.**